

Ayni paytda yurtimizda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 543 492 tani tashkil etadi. Shundan:

Oldindan faoliyat yuritayotganlari:
493 727 ta

Yangi tashkil etilganlari:
49 765 ta

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#72-73 (16526)
2022-yil, 12-oktabr
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

Dolzarb mavzu
3-bet

Talabalar Chirchiqqa
qanday qatnamoqda?

Yangilik
9-bet

Ijara puli shartnomasiz
to'lab beriladi

Yoshlar yetakchisi
10-bet

"Istiqlol"ning
Irodasi



O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Tarixiy taraqqiyot shuni tasdiqlaydiki, mamlakatning rivoji va farovonligi, eng avvalo, unda istiqomat qilayotgan yoshlarni to'g'ri tarbiyalash va zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlash masalalariga bog'liq. Hozirgi transformatsiya va zamonaviy tahdidlar kuchaygan murakkab davrda barcha davlatlar oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri yosh avlod vakillariga e'tiborni kuchaytirish va yoshlarga oid siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Shu bois yoshlarning ta'limi, sog'lig'i va bandligi bilan bog'liq muammolarga yechim topish, ularning kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash global miqyosdagi ahamiyatli masalalar qatorida turibdi.

Xalqaro hamjamiyat yoshlarning zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi asnosida o'z potensialini to'laqonli ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish orqali mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish, turli sohalar taraqqiyotining yangi bosqichiga erishish mumkinligini e'tirof etmoqda.

batafsil
4-9-betlarda

“HECH BIR FUQARO O‘ZINING MUAMMOLARI BILAN YOLG‘IZ QOLMASLIGI KERAK”

Kecha Prezidentimiz raisligida mahallalarni obod qilish va “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Tadbir avvalida boshlangan islohotlar, amalga oshirilayotgan loyihalarning barchasi inson qadriini ta‘minlash orqali aholini rozi qilishga qaratilgani yana bir bor ta‘kidlandi. Joriy yilgi dasturlar doirasida 4 100 ta mahallani obod qilish, bog‘cha, maktab, sog‘liqni saqlash, suv, elektr, kanalizatsiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga byudjetdan qariyb 29 trillion so‘m mablag‘ ajratilgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga muvofiq, hududlarga ishchi guruhlar yuborilib, ular 9 370 ta mahallaning har biriga kirib, aholining kayfiyatini o‘rganib, uni qiyonayotgan muammolar ro‘yxatini shakllantirdi. Aholi tomonidan yo‘l, ichimlik suvi, sug‘orish tizimi, elektr, ta‘lim va tibbiyot bilan bog‘liq 12 mingta masala va taklif ko‘tarilgan.

“Barcha hokim va vazirlar eshitib olsin. Prezident siyosati va tala-

bi shunday: hech bir fuqaro o‘zining muammolari bilan yolg‘iz qolmasligi kerak. Aholi kayfiyati – islohotlarimiz va siyosatimizning ko‘zgi. Katta-kichik bo‘ladimi, aholimiz ko‘targan har bir muammoga o‘z vaqtida munosabat bildirish, ularni bosqichma-bosqich hal qilish barcha darajadagi rahbarlarning eng ustuvor vazifasi bo‘lishi shart va zarur”, dedi Prezident.

Mahallalarni obod qilish va ularga infratuzilma olib borish dasturlarini ishlab chiqishda aholi ko‘targan 12 mingta masalani ham hal qilishni o‘z ichiga oladigan yangi tizim yaratildi. Eng avvalo, 4 979 ta mahalladagi ichki yo‘llar, ichimlik suvi va oqova tizimi, elektr energiyasi va gaz ta‘minoti, bog‘cha, maktab va sport obyektlari, obodonlashtirish, sug‘orish, ko‘chalarni yoritish va boshqa masalalarni hal qilishga bir oy muddatda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” jamg‘armalariga 1,7 trillion so‘m yo‘naltirish topshirildi. Ehtiyojga qarab, yil yakuniga qadar yana 1 trillion so‘m ajratilishi ta‘kidlandi.

Prezident Tashabbusli byudjet loyihasini yanada kengaytirish va ommalashtirish zarurligini ta‘kidlandi.

Shu bois, bir hafta muddatda har biri 2 mingdan ortiq aholi ovozi to‘plagan, lekin g‘olib bo‘lmagan 364 ta loyiha uchun qo‘shimcha 335 milliard so‘m ajratishga ko‘rsatma berildi. 200 dan ortiq aholi qo‘llab-quvvatlagan mahalla shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinikalarni jihozlashga kelgusi yilda qo‘shimcha 200 milliard so‘m ajratiladi. Bu orqali 195 ta loyiha doirasida 600 ta mahalla aholisi qamrab olinadi.

Shu bilan birga, kelgusi yildan viloyat byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining 30 foizi ham Tashabbusli byudjet loyihalari beriladi. Mahallalardagi infratuzilma uchun mablag‘lar faqat Tashabbusli byudjet orqali ajratilishi belgilandi. Bunda Tashabbusli byudjet loyihalari uchun mablag‘lar 3,5 baravarga oshirilib, 8 trillion so‘mga yetkaziladi.

Har bir mahalla o‘zining muammosini mustaqil hal etishi uchun **kelgusi yildan “Mahalla byudjeti” tizimi joriy etilishi aytildi.** 2023-yil 1-yanvardan har bir viloyatning bittadan tumanida tajriba tariqasida aholining mo‘l-mulk va yer solig‘ini undirish mahallaning o‘ziga o‘tkaziladi. Bunda, undirilgan mo‘l-mulk va yer solig‘i

mahalla byudjetida qoladi; har yili 1-fevralga qadar hokimlar mahalla birga mahalla byudjeti hisobidan hal qilinadigan loyihalar ro‘yxatini tuman Kengashlariga tasdiqlash uchun kiritadi; kelgusi yil yakunida ushbu tajriba barcha hududlarda joriy qilinadi.

Yig‘ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasining borishi ham ko‘rib chiqildi. “Yashil makon” doirasida **yil yakuniga qadar 75 million dona va 2023-yil bahor oylarida yana 125 million dona mevali va manzarali ko‘chatlar ekish vazifasi qo‘yildi.** O‘tgan yilgi tajribadan kelib chiqib, 20-oktabrdan 1-dekabr gacha ko‘chat ekish bo‘yicha dolzarb 40 kunlik e‘lon qilinadi. Aholi xonadonlarida va dala chetlarida ko‘proq mevali daraxtlar va sabzavot ekishni faol targ‘ib qilish kerakligi ta‘kidlandi.

Viloyat hokimlariga kuz mavsumida kam ta‘minlangan 500 ming xonadonga 10 tupdan mevali daraxt ko‘chatini bepul tarqatish topshirildi. Yig‘ilish yakunida mutasaddilarning hisoboti va takliflari eshitildi.

Prezident matbuot xizmati axborotidan olindi.

ENG ZO‘R DEBATCHILAR BOKUGA YO‘LLANMA OLDI



2022-yil 27-may kuni Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT)ning Yoshlar forumi (ICYF-ERC) Yevroosiyo mintaqaviy markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi o‘rtasida imzolangan Anglashuv memorandumiga muvofiq, Toshkentdagi Xalqaro Westminster universitetida xalqaro debat musobaqasining milliy saralash turniri bo‘lib o‘tdi. Unda oliy ta‘lim muassasalaridan saralab olingan Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, TMC instituti, hamda INHA, Xalqaro Westminster universiteti, Webster, Amity va Toshkent davlat yuridik universitetlaridan 8 ta eng faol va iqtidorli jamoalar o‘zaro bellashdi.

Turnirning ahamiyatli jihati shundaki, g‘olib jamoa Boku shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro debat musobaqasida O‘zbekiston nomidan ishtirok etadi. Turnirning ilk marotaba tashkil etilishi va ingliz tilida o‘tkazilishi esa jamoalar uchun haqiqiy munozara maydonini yaratdi.

Turnir davomida jamoalar bugungi kunda global hamda insoniyat hayotidagi eng dolzarb bo‘lgan: sun‘iy intellekt, kriptovalyuta, zamonaviy texnologiyalar va texnika taraqqiyotining inson hayotiga ta‘siri xususida bahs olib borishdi.

O‘yinning eng murakkab jarayonlaridan biri esa jamoalar bir vaqtning o‘zida bir mavzu bo‘yicha ham tasdiq, ham inkor pozitsiyalariga tayyor bo‘lishlari, bir soat davomida qarshi jamoa bilan munozara olib borishi va o‘z yondashuvlarini himoya qilishi talab etildi.



Ketma-ket bo‘lib o‘tgan 7 ta munozara o‘yinlari yakuniga ko‘ra, Toshkent davlat yuridik universiteti talabarlari saralash turnirining mutlaq g‘olibi deb topildi. G‘olib jamoa 2023-yili o‘tkaziladigan xalqaro debat chempionatiga yo‘llanma hamda tashkilotchilarning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. O‘yin davomida eng kuchli deb topilgan notiqarlarga esa alohida **“Eng yaxshi notiq”** nominatsiyasida statuetkalar topshirildi.

Taqdirlash marosimida IHT Yoshlar forumi (ICYF-ERC) Yevroosiyo mintaqaviy markazi direktori Vusal Gurbanov onlayn tabrik yo‘ladi. G‘olib va faol ishtirok etgan barcha talabalar va tashkilotchilarga Yoshlar ishlari agentligining diplom hamda esdalik sovg‘alari berildi.

Ro‘za ARTIKBOYEVA,

O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi xorijda ta‘lim olayotgan yoshlar bilan ishlash bo‘limi mutaxassisi

Talabalarning talab va istagiga ko‘ra, kelgusida ingliz tilida ham debat o‘yinlarini tashkil etish uchun tashkilotchilarga tavsiyalar berildi.

Albatta, bu kabi munozaralar yoshlarda na-faqat notiqlik qobiliyatlarining rivojlanishi, balki o‘z fikrlarini chet tillarida dunyo minbarlarida turib himoya qilishlari uchun maydon yaratadi. Eng muhimi, yoshlarda tanqidiy fikrlash, o‘z pozitsiyasini himoya qilish, qisqa muddatlarda qaror qabul qilish, keskin vaziyatlarda ham o‘z fikrlarini tartibli tarzda yetkaza olish kabi si-fatlarni rivojlantiradi.



TALABALAR CHIRCHIQA QANDAY QATNAMOQDA?



Chirchiq shahrida bir nechta yangi ta'lim muassasalari tashkil etilgach, talabalar soni ham ortdi. Yotoqxonada joy tanqisligi uchun Toshkent viloyatining deyarli barcha shahar va tumanlaridan talabalar qatnab o'qimoqda. Jamoat transportlari yetishmasligi tufayli talabalar kunlik yo'l xarajatiga 40-50 ming so'm sarflashga majbur bo'lmoqda.



**TOSHKENTDA
KVARTIRA
QIMMATLIGI
UCHUN CHIRCHIQ
SHAHRIDAN
QATNASHGA
MAJBUR
BO'LYAPMIZ.**

Chirchiq shahridagi "Trans-Avtotaxi" kompaniyasiga murojaat qilib, bu vaziyatga oydinlik kiritishga harakat qildik. O'zini kompaniya mas'ul xodimi deb tanishtirgan Firuza ismli shaxs shunday dedi:

– O'tgan yili Chirchiq davlat pedagogika universitetidan "ITZ" orqali Qushqovulgacha va Nurafshon shahrini so'nggi bekat qilib, yangi yo'nalish ochmoqchi edik, biroq avtotransport yo'qligi tufayli imkon bo'lmadi. Avtobuslarning narxi salkam 10 million so'mga oshdi, kredit foizi balandligini inobatga olib, bu yo'nalishni ochishga imkon bo'lmadi. Biroq bu fikrdan qaytmadik, Transport vazirligi bilan hamkorlikda muammoga yechim topish uchun zarur choralar ko'ryapmiz.

Xonadon ijarasi poytaxtdan arzonligi bois Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan aksariyat talabalar ham vaqtincha Chirchiqda yashashga

majbur bo'lmoqda. Bundan "unumli" foydalanayotgan haydovchilar esa istagan narxini qo'yishmoqda.

– Toshkentda kvartira qimmatligi uchun Chirchiq shahridan qatnashga majbur bo'lyapmiz, – deydi Toshkent davlat agrar universitetida o'qiyotgan qiz. – Shu bois goh darsga kech qolaman, gohida nonushtasiz yo'lga chiqaman. Jamoat transporti yetishmasligi tufayli Chirchiq shahridan Toshkentdagi "Buyuk Ipak yo'l" metro bekatigacha "Damas" da qatnaymiz. Qizigi, haydovchilar soat 7:30 dan 9:00 gacha va soat 14:30 dan 18:00 ga qadar belgilangan 6000 so'm yo'l haqi o'rniga 10 000 so'm narx qo'yimoqda. Bu esa biz, talabalarga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmoqda.

Masala yuzasidan Chirchiq shahar davlat soliq inspeksiyasi mutasaddilariga murojaat qilganimizda ular O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi "Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo'nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida"gi qaroriga asosan, joriy yilning 1-sentabridan haydovchilar o'zini o'zi band qilgan holda davlat tomonidan belgilangan miqdordagi bojni to'lab ishlayotganini, ularning faoliyatiga aralashishga haqqi yo'qligini aytishdi.

Ushbu qaror haydovchilarga katta qulaylik yaratadi, ammo insofsiz haydovchilarga ham eshiklarni keng ochib berdi, shekilli.

Xo'sh, yangi yo'nalishlarda jamoat transportlari qatnovini yo'lga qo'yish shunchalik qiyinmi? Nazarimizda, aholi muammolari tizimli o'rganilganida bunday holatlar yuzaga kelmasdi. Qog'ozbozlikka chek qo'yilib, manfaatdor tashkilotlar bir-biri bilan kelishgan holda ishlasa, Chirchiq shahridagi jamoat transporti masalasi tez orada hal bo'lar edi.

Maksim GYULAHMEDOV,
blogger



PULINI TO'LASANGIZ BO'LDI, KESAVERING DARAXTLARNI...

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi Bo'rijar kanali yonida juda ko'p miqdordagi katta daraxtlar, keng miqyosdagi yashil hudud butunlay yo'qotilib, o'rniga ko'p qavatli uy qurilayotgani jamoatchilik o'rtasida katta muhokamalarga sabab bo'ldi. Majmuaning "Kislorod" deb atalishi esa daraxtlar kesilayotganidan "dod" deyotgan aholiga "dalda berish" uchunmi, bilmadik.

Toshkent shahar ekologiya boshqarmasi esa mazkur majmuada kesilgan 700 tupga yaqin daraxtdan atigi 12 tasini rasmiylashtirgan, xolos. Zarar miqdori 26,2 million so'm. Vaholanki, moratoriy talabalarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalar miqdori 5 baravarga oshirilgan edi.

Daraxtni kesmaslik bo'yicha ko'p gapirildi, kesganlarga chora ko'rildi, moratoriy e'lon qilindi, katta minbarlardan keskin gaplar aytili va hokazo. Ba'zi joylarda daraxt tun-u kun qo'riqlandi ham. Ammo ahvoli ko'rib turibsiz, kunda-kunora kes-keslar haqida eshitamiz. Avvalroq Toshkent shahri Uchtepa tumanida quruvchi tashkilot tomonidan 42 tup har xil turdagi daraxt qonunga xilof ravishda kesib yuborilgani ma'lum bo'lgandi. Keyin esa Chilonzor tumani Chilonzor ko'chasidagi "Dream House Stroy" kompaniyasiga ajratilgan va metal devor bilan o'rab olingan 0,2 gektar maydonda bir kechaning o'zida 58 ta daraxt kesib tashlandi.

Statistikaga qaraganda, moratoriy joriy qilingandan buyon tabiatga yetkazilgan zarar 9,7 milliard so'mni tashkil etgan, undirilgani esa 2,9 milliard so'm, xolos. Alqissa, bu kabi holatlarga ko'p va xo'p misol keltirib o'tish mumkin, va yana davom etaveradi. Chunki qurilish boshlashdan oldin daraxtlar hech bir tadbirkor tomonidan hisobga olinmaydi. Ayni mavzuda so'z ketar ekan, amaliyotchi yurist Saidali Muxtoraliyev shunday deydi:

"Jinoyat kodeksining 198-moddasidagi jazolar oddiy, ya'ni o'rtahol va kambag'al insonlarni qo'rqitishi, ularga ta'sir qilishi mumkin, lekin pulga ko'milgan hamda daraxtkushlik ortida turgan tadbirkorlarni cho'chita olmaydi. Chunki bu moddani 4-qismida agar zarar 3 karra miqdorida qoplan-sa, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilmasligi aytilgan. Hamma gap shunda.

O'limdan boshqa hamma narsaning iloji bor, deb hisoblovchi o'sha daraxtlarni qirg'in qilgan va aslida soyada yuruvchi "tadbirkor"ning hisob-kitobi yo'q deb o'ylaysizmi? Unday emas, ularning barcha rejaları, hisob-kitoblari puxta bo'lgan, jamoatchilik hozirgidek talvasaga tushishini ham oldindan hisobga olgan. Faqat ular "risklar" ustida bosh qotirgan, ya'ni ularga qancha zarar bo'lishi-yu, qancha foyda bo'lishi haqida o'ylagan, xolos. Yakun baribir a'romad bilan tugashiga ko'zi yetib, daraxtlarni bir kundayoq yo'q qilib qo'ya qolgan.

Tasavvur qiling, "uddaburon" tadbirkor poytaxtning markaziy hududidan 30 sotixlik joyga hokimning qarorini chiqartirib, hududni o'rab olgan, bu yerda ko'p qavatli xonadonlar qurib sotishni reja qilgan. Kutilayotgan daromad 50 milliard so'm. Biroq bu yerda 60 ta "bosh og'riq", ya'ni 60 ta ko'p yillik daraxt bor. Shu joyida "plyus-minuslar" solishtiriladi: moratoriy bor, daraxtlar kesilsa, tabiatga 500 million so'm zarar hisoblanadi, kompaniya rahbariga JKning 198-moddasi bilan ish ochiladi va u 3 yilgacha qamalib ketishi mumkin. Biroq bu zarar 3 barobar, ya'ni 1,5 milliard qilib to'lansa, hech kim qamalmaydi, ozodlikdan cheklash ham berilmaydi, 60 million so'mgacha jarima yoki 3 yilgacha axloq ishlari berilishi mumkin... Afsuski, ayni paytda tizim mana shunday ishlamoqda".

Yaqinda e'lon qilingan xalqaro reytingga ko'ra, O'zbekiston havoning iflosligi bo'yicha 180 ta mamlakat orasida 12-o'ringda turadi. Bir necha yildan so'ng mamlakatimizdagi iqlim yashab bo'lmaydigan darajaga yetadi. Ungacha daraxtlarni kesib, cho'htak qappaytirayotganlar chidab bo'lmas yoz oylarini bahavo dengiz bo'ylarida o'tkazib kelar, ehtimol.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

▶▶ boshlanishi 1-sahifada.

O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Qahramon QURONBOYEV,

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

Alisher SA'DULLAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator

Dunyo aholisining qariyb to'rtadan bir qismini tashkil etuvchi yoshlar vakillari-ning 89 foizi kam rivojlangan davlatlarda istiqomat qiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT global kun tartibining barqaror rivojlanish maqsadlariga ko'ra, butun dunyoda yoshlarning ulushi 7 foizga oshishi kutilmoqda.

Shuningdek, olimlar o'z tahlillarida asrimiz yakuniga qadar yoshlar salmog'i 3,5 milliarddan oshishini prognoz qilmoqda. Bu esa yoshlar masalalariga va yosh avlodni voyaga yetkazish bilan bog'liq muammolarga e'tiborni kuchaytirish zaruratini namoyon qiladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiya qabul qilish tashabbusini ilgari surish orqali davlatlarni yoshlar taqdiri va kelajagi borasida mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga chaqirgandi.

Yoshlar muammolarini hal qilish faqat bir davlatga taalluqli masala emas. O'zaro bog'liq dunyoda yoshlar masalalarida xalqaro hamkorlik, doimiy konstruktiv muloqot hamda xalqaro formatlar doirasida mavjud muammolarga yechimlar ishlab chiqish bugungi davr talabidir.

STRATEGIK AHAMIYATGA EGA VAZIFA



Bugungi kunda O'zbekiston aholisi umumiy sonining 60 foizidan ortig'ini mustaqillik farzandlari – 18 million yosh fuqarolar tashkil etmoqda. Shu bois yoshlar masalalari davlat siyosatida strategik ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar ta'limi va tarbiyasi, kadrlar tayyorlash hamda o'g'il-qizlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs sifatida kamol toptirish o'ttiz bir yillik tariximizda tizimli ravishda takomillashtirilib kelinmoqda.

Xususan, oxirgi 5 yilda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **50 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat** qabul qilindi. 1991-yildan O'zbekistonda yoshlar tashkiloti o'z faoliyatini olib bormoqda. Yosh avlod vakillarining ijtimoiy harakati o'z atrofida millionlab faol yoshlarni birlashtira oldi.

Qayd etish joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahbarligining ilk kunlaridan yoshlar siyosatida ham yangicha yondashuv va munosabatni ilgari surdi. Bu yo'nalishga eng ustuvor ahamiyat qaratib, birinchi imzolangan hujjat ham "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun bo'ldi.

Mazkur qonunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar o'z aksini topdi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi har bir subyektning vakolatlari aniq belgilandi.

2017-yil 30-iyun kuni mamlakat yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish maqsadida davlat rahbari tashabbusi bilan asosiy maqsadi yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Ushbu sana esa respublikamizda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Shuningdek, yoshlarning turli sohalardagi manfaatlarini himoya qilish maqsadida Yosh olimlar kengashi, Yosh ijodkorlar kengashi, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazi, Imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar markazi kabi o'ttizga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlar ta'sis etildi. Har bir tuman va shaharda yoshlar markazlari qad ko'tardi.

RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA
MUNOSIB YOSHLARNI QO'LLAB-
QUVVATLOVCHI "VATAN
IFTIXORLARI" INSTITUTSIONAL
TIZIMI JORIY ETILDI.

1-YO'NALISH

Davlat boshqaruvida yoshlar ishtiroki muhim qarorlar qabul qilish jarayonida ular manfaatlarini yanada ko'proq inobatga olish imkoniyatini vujudga keltiradi. Aynan davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan tizim yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi.

Bundan tashqari, yoshlar orasidan istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirishni nazarda tutuvchi tashabbuskor, islohotlarni amalga oshirish va joylardagi muammolarni hal etishda faol ishtirok etuvchi, rahbarlik lavozimlariga munosib yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi "Vatan iftixorlari" institutsional tizimi joriy etildi.

Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishning keyingi bosqichida esa yoshlar masalalariga e'tibor va muammolar yechimi davlat organi darajasidagi tashkilot tashkil etish ehtiyojini vujudga keltirdi.

2020-yil Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Shu vaqtdan, yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda sohada qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga mas'ul "vazirlik darajasida"gi tashkilot faoliyatini boshladi.

E'tiborli jihati, Yoshlar ittifoqi faoliyati ham saqlab qolindi. Chunki yoshlar manfaatlarini ifoda etuvchi nodavlat notijorat tashkilot aynan yosh avlod vakillari tomonidan ta'sis etilgani hamda ularning o'ziga tegishli ekanligi bilan ham ahamiyatli va muhimdir.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2019-2023-yillarga mo'ljallangan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan Kitobxonlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar esa yoshlar masalalari va ularni qiyinayotgan muammolarini bevosita davlat darajasida ko'rib chiqish va hal etish imkonini ta'minlamoqda.

davomi ▶▶

YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGICHA TIZIMI

Prezidentimiz yangi avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi. Ular tomonidan "bugun tug'ilgan bola ulg'ayib, har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetib jamiyatda o'z o'mini topishi, keksayganda esa munosib farovon hayot kechirishi mumkin bo'lgan" yaxlit tizim strategiyasi ilgari surildi.

Bu strategiya, eng avvalo, shijoatli, kreativ, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlar topa oladigan, yurt taraqqiyoti uchun yangi g'oyalarni ilgari suradigan tashabbuskor yangi avlod vakillarini voyaga yetkazishga qaratildi. Davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlari orqali yoshlarga oid siyosat samaradorligi va natijadorligiga erishish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Ahamiyatli yana bir jihat, yangi tizim mamlakatdagi barcha o'zbek yoshlarining huquq va manfaatlarini qamrab olishga yo'naltirildi. Xorijiy mamlakatlarda o'qiyotgan, mehnat qilayotgan yoshlarimiz muammolariga ham Prezidentimiz alohida e'tibor qaratiladi.

2017-yilda O'zbekiston delegatsiyasi xorijda mehnat qilayotgan yoshlarimizning muammolarini o'rganish maqsadida maxsus xizmat safarini amalga oshirdi. Og'ir mehnat sharoitlaridagi minglab o'zbek yoshlarining muammolari joyida hal etildi.

Xorijdagi yoshlarning uy-joyi, oziq-ovqati, salomatligi, ta'limi, oylik maoshi hamda mehnatni rasmiylashtirish bilan bog'liq jarayonlar o'rganilib, bu yo'nalishda ham ishlar tizimli yo'lga qo'yildi.

Xususan, xorijiy mamlakatlarda o'qiyotgan va mehnat qilayotgan O'zbekistonlik yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida "O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi" tashkil etildi. Bugungi kunda Assotsiatsiyaning 30 dan ortiq mamlakatlaridagi vakillari o'z faoliyatini olib bormoqda.

Birinchidan, yoshlarning ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi

masalalari ko'plab yoshlarimizning oliy ma'lumotli yetuk kadr bo'lib shakllanish borasidagi orzularini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgandi.

Mamlakatimizda 2016-yil 77 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ular soni 186 taga yetkazildi. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 29 foizga oshirilib, 2022-yilning yakuniga qadar 42 foizga yetkaziladi. Bu esa yana 200 mingga yaqin yoshlarimiz uchun oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.

Shuningdek, bilim yurtlarida **a'lo baholarga o'qiyotgan 3 488** nafar talaba-yoshning shartnoma to'lovi uchun **9,88 milliard** so'm mablag'lar to'lab berildi. Ehtiyojmand oilalar qizlari uchun ajratilgan grantlar soni ikki barabarga ko'paytirilib, 2 mingga yetkazildi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun **Prezident granti**, shuningdek, res-

**YANGI TIZIM MAMLAKATDAGI
BARCHA O'ZBEK YOSHLARINING
HUQUQ VA MANFAATLARINI
QAMRAB OLISHGA
YO'NALTIRILDI.**

publikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun **Prezident va davlat stipendiyalari joriy etildi.**

Bundan tashqari, ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida doktorantura bosqichi uchun kvota **ikki barabarga** oshirildi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 1465 nafar ilm-fanga chanoq, iste'dodli yoshlarimiz yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarida bakalavr, magistratura va doktoranturada o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan **7,7 ming nafar** yoshlarga **14 milliard so'm** miqdorda imtihon topshirish xarajatlari qoplab berildi. **"Ma'rifat karvoni"** loyihasi doirasida 4 milliarddan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi.

O'zbekiston sharoitida yoshlar bilan ishlash, yosh avlod vakillarining siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularni siyosiy jarayonlarga faol jalb etish orqali mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ular uchun yangi imkoniyatlarni yaratish maqsadida respublikamizda mutlaqo yangicha tizim shakllantirildi.

**O'ZBEKISTONDA
YOSHLARGA OID
DAVLAT SIYOSATI**

davomi



2 - YO'NALISH

Ikkinchidan, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, yoshlar biznesini yo'lga qo'yish uchun Prezident farmoni bilan "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi. Yoshlarga ushbu yo'nalishda bilim va ko'nikma hamda zarur maslahat berish bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi 20 ta "Yosh tadbirkorlar kovorking markazlari" tashkil etildi.

Yosh tadbirkorlar o'z faoliyatini amalga oshirishlari uchun 244 ta "Yoshlar mehnat guzari" komplekslari foydalanishga topshirilib, ularda jami **2 589 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi.

"Yoshlar - kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida esa, 8 635 ta biznes loyihaga jami 1 trillion 858 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilib, 42 421 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bundan tashqari, hududlarda tashkil etilgan 199 ta "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari"da 3 mingga loyiha doirasida yoshlar uchun 50 mingga yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

"Har bir tadbirkor - yoshlarga madadkor" tamoyili asosida ko'ngilli tadbirkorlarni jalb etgan holda 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni birlashtirish tashabbusi hamda "Yoshlar: 1+1" loyihasi doirasida 452 ming nafar uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, ularda biznes ko'nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ajratish orqali o'z faoliyatini boshlashga ko'maklashishga erishildi. 2021-yilning o'zida 123 mingdan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 3,1 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

Natijada oxirgi 3 yilda respublikamizda 30 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar soni **5 barobar** ko'payib, **500 mingdan oshdi.**

Uchinchidan, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida alohida dastur qabul qilinib, **3 460 ta** yosh oilaga **"Yoshlar uylari"** uchun **156 milliard** so'mlik boshlang'ich to'lov mablag'lari **20 yil davomida foizsiz qaytarish** sharti bilan to'lab berildi.

To'rtinchidan, yoshlar uchun davlat xizmatiga kirish imkoniyatlari kengaytirildi. Natijada davlat xizmatida 40 yoshgacha bo'lgan xodimlar ulushi 37 foizdan 61 foizga yetdi. Rahbarlik lavozimlari uchun Salohiyatli kadrlar rezervi mahallalardagi hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari orasidan tanlab olinishi belgilandi. Davlat xizmatida 700 ta ilg'or yetakchilar va "Yosh mutaxassislarni tanlash" dasturlari yo'lga qo'yildi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha tartibotlari natijasida so'nggi yillarda Vatanimiz - Yangi O'zbekiston yoshlar uchun yangi imkoniyatlar, yangi imtiyozlar, yangi maralar mamlakatiga aylandi.

3460
TA YOSH OILAGA
"YOSHLAR UYLARI"
UCHUN 156 MILLIARD
SO'MLIK BOSHLANG'ICH
TO'LOV MABLAG'LARI
20 YIL DAVOMIDA FOZSIZ
QAYTARISH SHARTI BILAN
TO'LAB BERILDI.

YOSHLARNING BO'SH VAQTI – YETAKCHINING ISH VAQTI

Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi tarixiy qarori yoshlar bilan ishlashda yangi, shu bilan birga, an'anaviy o'zini o'zi boshqarishning mahalla institutiga asoslangan yagona vertikal tizimini yaratish imkonini berdi.



▶▶ O'ZBEKISTONDA
YOSHLARGA OID
DAVLAT SIYOSATI

davomi



e

Endilikda yoshlar muammosi faqatgina uning o'qish yoki ish joyidagi muvazansizlik ko'magida emas, balki uning o'zini va oilasini yaxshi taniyadigan, biladigan muhit – mahallalarda hal etiladigan bo'ldi.

Xususan, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va salmoqli huquqbuzarliklar aynan mahallalarda sodir etilar, ishsizlik, bekorchilik va imkonsizlik keng uchrab turar edi. Bu muammoni samarali hal etish uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan 9370 ta mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi tashkil etildi. Bu lavozimlarga ochiq tanlov asosida yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, fidoyi va vatanparvar yetakchilar saralab olindi.

Endilikda yoshlar siyosati mahalladan boshlanadi, ularning muammolari ham mahallalarda o'z yechimini topadi. “Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti” g'oyasi qisqa vaqt ichida ilg'or yoshlarni birlashtira oldi. Mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan tadbirlar asnosida qariyb 9,8 million nafar yoshlar qamrab olindi.

Mahalladagi yoshlar yetakchilari tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlar shunchaki ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki yoshlar o'zaro yaqinlashtirish, muammolarini joyida hal qilish, yangi iste'dodlarni kashf etish hamda faol yoshlar safini kengaytirishga qaratildi. Bu orqali hisobotlar uchun o'tkaziladigan tadbirbozliklardan voz kechilib, mahallalarda yoshlarning masalalarini bevosita hal etish tizimiga asos solindi.

Aslida yoshlarni qiynayotgan masalalarini ular bilan bir mahallada yashayotgan tengdoshlaridan ko'ra yaxshiroq biladigan kishi yo'q.

Ular har kuni mahallada bir-biriga duch keladi, u yerdagi sharoit, asl holatni boricha, ya'ni aslicha ko'ra oladi. Shu sabab, yetakchilarning mahallalarda faoliyat olib borishi har jihatdan foydali bo'lmoqda.

Yetakchilarga doimiy huquqiy, uslubiy ko'mak berish hamda “Mahalla – tuman – viloyat – respublika” boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha ishlar samaradorligini nazorat qilish, yetakchilar faoliyatida uchrayotgan muammolarni hal qilish yuzasidan idoralararo hamkorlikni ta'minlash maqsadida mahallalarda Yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha **Respublika komissiyasi tashkil etildi.**

Respublika komissiyasi barcha hududlarni kompleks o'rganib, yoshlar yetakchilari, mahalla raislari, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori va maktab direktorlari bilan ochiq muloqotlar o'tkazdi. Muloqotlarda har bir tumandan faoliyati namunalari deb topilgan bir nafar yetakchi milliy kadrlar zaxirasiga kiritildi. O'z o'rnida ular tuman (shahar), sektor sardorlari etib belgilandi.

MAHALLALARDA YOSHLAR
BILAN ISHLASH MASALALARINI
MUVOFIQLASHTIRISH BO'YICHA
RESPUBLIKA KOMISSIYASI
TASHKIL ETILDI.

Sodda qilib tushuntirganda, bu xuddi ko'p toshlar orasidan haqiqiy javohimi ajratib olib, unga ishlov berishga o'xshaydi. Bunday javohir faqat o'zining qiymatini emas, balki o'sha hududning ham nufuzini oshiradi.

“Yoshlar daftari” yoshlarga oid davlat siyosatini yuritishdagi o'ziga xos yangiliklardan biri bo'ldi. Bu-

3 - YO'NALISH

gun u haqli ravishda “imkoniyatlar daftari” deb ta'riflanmoqda. Negaki, “Yoshlar daftari” sabab juda ko'plab yigit-qizlarning orzusi ro'yobga chiqdi.

“Yoshlar daftari” – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ish-tiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

249 ming nafar yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilib, bugungi kunga qadar ularning 201,2 ming nafari (81 foizi)ning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari hal etildi. Buning uchun “Yoshlar daftari” jang'armalari hisobidan 345,7 milliard so'm mablag' ajratildi.

Jumladan, 146,3 ming nafar yoshlarga dehqonchilik faoliyati uchun 32,4 ming gektar ekin maydonlari, 80 ming 268 nafar yoshlarga tadbirkorlik faoliyati uchun 2 trilion so'm kredit mablag'lari ajratilgan.

“YOSHLAR DAFTARI” JANG'ARMALARI HISOBIDAN 345,7 MILLIARD SO'M MABLAG' AJRATILDI.

Shu yil 7-iyun kunigacha yoshlar yetakchilari 9370 ta mahallada uy-ma-uy xatlov o'tkazib, 14-30 yoshdagi 9,1 million yoshlarning ijtimoiy holati va bandligi, ta'limi, oilaviy holati va salomatligi bo'yicha balansini shakllantirdi. “Yoshlar balans” orqali

di. Bu raqamlar ortida insonning, ertangi kun egasi bo'lgan yoshlarimizning taqdiri turibdi. Bunda esa har bir yoshning muammosi ijobiy hal etilgani bois yangicha kuch va shijoat bilan olg'a harakat qilmoqda.



5

TASHABBUS OLIMPIADASI



O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

davomi

Ijtimoiy hayotimizning turli jabha va sohalarini kompleks taraqqiy ettirish tizimli yondashuvni talab etadi. Bevosita davlat rahbarining sa'y-harakatlari tufayli yurtimizda "Besh muhim tashabbus"ning joriy etilishi diqqatga sazovor voqe'liklardan biri bo'ldi.

Mazkur g'oyaning hayotga tatbiq etilishi Prezidentimizning O'zbekiston xalqi, xususan, yoshlarni bir maqsad asosida birlashtirish niyatida ekanligiga yana bir tasdiq bo'ldi. Bu g'oya barcha yoshlarning diqqatini o'ziga tortdi hamda yuqori ishתיyoq bilan qarshi olindi. Loyiha doirasida respublikamizning olis tumanlaridagi eng og'ir sharoitdagi 168 ta mahalla namunaviy tanlab olinib, minglab yangi iste'dodlar kashf etildi.

Shuningdek, loyiha doirasida 51 651 ta sport inshootlari, 826 ta madaniyat markazlari, 10

4 - YO'NALISH

ming 8 ta umumta'lim maktablarida yoshlarni madaniyat va san'at hamda sportga jalb etishga qaratilgan 41 mingta to'garak faoliyati yo'lga qo'yilib, 1 million 100 ming nafar yoshlar jalb qilindi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish uchun davlat byudjetidan 2022-yildan boshlab har yili 50 milliard so'm miqdorida mablag' ajratiladi.

Shu kunlarda ushbu olimpiadaning ikkinchi mavsumi boshlandi. Yoshlarning xohish-is-

taklari o'rganilib, ikkinchi mavsumga bir qator o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi. Masalan, sportga qiziqadigan yoshlar uchun kurash sport turi bo'yicha musobaqalar tashkil etilmoqda.

Bu mavsumdagi olimpiadada ishtirok etish istagini bildirgan 3,5 million nafardan ziyod yoshlardan @besh_tashabbus_botga arizalar kelib tushdi. Bu raqam musobaqa yoshlarimiz o'rtasida katta qiziqish uyg'otganini tasdiqlaydi.

Vatanimizda hech bir yosh e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Ayniqsa, hayotning turli sinovlariga duch kelgan yoshlarga ko'proq e'tibor berish – ustuvor vazifalarimizdan hisoblanadi. Xususan, nogiron yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga e'tibor markazimizdagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

INKLYUZIV SIYOSAT

5 - YO'NALISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 52-sonli qarori bu sohada olib borilayotgan ishlarga yanada jadal tus berdi. Qarorda nogironlar salomatligiga alohida e'tibor qaratish, ularni munosib ish o'rni va oylik maosh bilan ta'minlash masalalari belgilab berildi.

Bundan tashqari, Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili **500 nafargacha nogiron yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiya ajratish tizimi** joriy etildi. Chin yetim, nogiron, Mehrimonlik uyida tarbiyalangan va boquvchisini yo'qotgan 729 nafar talabanning 2,1 milliard so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari to'lab berildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni kasbga o'qitish, oliy ta'limga jalb etish maqsadida ham qator imtiyozlar joriy etilib, ularni oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda maxsus kvota va imtiyozli o'rinlar ajratildi. Mamlakatimizda nogiron yoshlar (16-30 yoshdagi) – 94 276 (shundan ayollar – 41 196) nafarni tashkil etadi. Ayni kunlarda 25 ming 739 nafar nogiron, tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olingan va ularga o'z vaqtida kerakli tibbiy yordam ko'rsatish asosiy vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

Nogiron yoshlarga motivatsiya berish, jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri "Chegarasiz" loyihasidir! Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan loyiha qisqa vaqt ichida yoshlar orasida katta shov-shuvlarga sabab bo'lib, e'tibor markaziga tushib ulgurdi.

Shuningdek, joriy yilda bu yoshlarning ta'limga ehtiyojini qondirish, sportga qiziqishini oshirish, salomatligini tiklash va psixologik ko'mak ko'rsatish maqsadida "**Inklyuziv turizm**" loyihasi doirasida **25 ming nafar yoshlar O'zbekistonning diqqatga sazovor qadamjolariga sayohat qilishi ko'zda tutilgan.**

Tajriba tariqasida 2022-yil 25-29-may kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumanida "Matonat" oromgohi tashkil etildi. Loyiha nogiron, uyda ta'lim olayotgan yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash,

oliy ta'lim olishi va kasb tanlashida yo'nalish berish, huquqiy savodxonligini oshirish kabi bir qator maqsadlarni ko'zda tutadi. Oromgohda "Mening inklyuziv kasbim" loyihasi doirasida "Sartaroshlik", "Novvoylik", "Oshpazlik", "Shifokor", "IT" hamda "Uchuvchilik" yo'nalishlarida soha mutaxassislarining mahorat darslari o'tkazildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan, ammo yuksak matonati va intilishi sabab barchamizga ibrat bo'la oladigan yoshlarimiz talaygina. Masalan, o'z maqsadlari yo'lida to'xtamay harakat qilib, bugungi kunda 10 ta mahalladoshini ish bilan ta'minlagan **Muazzam Ibrohimovanning** intilishlarini ko'rib qo'yil qolasiz: "Mening imkoniyatim cheklanmagan, nogironlik nafaqasiga ham ehtiyojim yo'q!", – deydi Muazzam. Andijonda istiqomat qiluv-

CHIN YETIM, NOGIRON, MEHRIBONLIK UYIDA
TARBIYALANGAN VA BOQUVCHISINI YO'QOTGAN
729 NAFAR TALABANING 2,1 MILLIARD SO'MLIK TO'LOV
SHARTNOMA MABLAG'LARI TO'LAB BERILDI.

chi, 1 guruh nogironi bo'lgan Muazzam 15 ta tikuv mashinasi sotib olgach, tuman hokimligidan qo'shimcha bino ajratildi. Hozir u bir nechta o'zi kabi yoshlarni ish bilan ta'minlagan.

YOSHLAR MUAMMOLARIGA GLOBAL YECHIMLAR

Hozirgi davrda dunyodagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolar yechimi to'g'ridan-to'g'ri yoshlar bilan bog'liqdir. Chunki bugungi yoshlar ertaning yetakchi kuchi liderlari sanaladi. Shu tufayli, yoshlar muammolariga xalqaro formatlar doirasida e'tibor qaratish, global yechimlar topish sayyoramizning ertangi taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

6 - YO'NALISH

Davlatimiz rahbari yoshlar masalalarida xalqaro hamjamiyat bilan konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yishni – yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida oldimizda turgan muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berdi. Ularning maqsadi nafaqat o'zbek yoshlarining manfaatlarini himoya qilish, balki butun dunyodagi yosh avlod vakillarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida farovon hayot kechirishini ta'minlashga hissa qo'shishga yo'naltirildi.

Shu tufayli, O'zbekiston 2018-yilda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Yoshlar kengashiga, 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarning Yoshlar ishlari bo'yicha Kengashiga, 2021-yilda esa Osiyoda o'zaro ishonch chorolari bo'yicha Kengashining Yoshlar bo'yicha Kengashiga teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi.

Albatta, yoshlarga oid yangi tizim nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi siyosatda ham yoshlar manfaatlarini mushtarakligini nazarda tutadi. Zero, Yangi O'zbekiston



yoshlari xalqaro maydonda ham o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lishi kerak. Buning uchun xalqaro aloqalarni mustahkamlash, xorijlik yoshlar bilan fikr va malaka almashish maydonini yaratish lozim edi.

ayon bo'ldiki, bizning istaklarimiz, orzu-niyatlarimiz tom ma'noda mushtarak. Mazkur tadbir esa hozirgi mavjud salohiyatimizni oshirish, jamiyatdagi mushtarak muammolar yechimini topish, mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalar, yuqori texnologiyalar, IT sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**BUXORO SHAHRIDA O'TKAZILGAN
TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING
IV YOSH LIDERLAR FORUMIDA HAM IKKI
VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK
KELISHUVLARIGA ERISHILDI.**

Hozirgi davrda hech bir mamlakat yakka o'zi rivojlana olmaydi. Tarixdan ham ma'lumki, mamlakatlar doim savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hamkorliklar evaziga rivojlangan. Shu ma'noda tili, e'tiqodi va dunyoqarashi bir-biriga yaqin bo'lgan Turkiy xalqlarning jipslashishi mintaqamizdagi mamlakatlar taraqqiyotiga sabab bo'ladi.

Prezidentimizning Turkiya Respublikasida o'tkazilgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 8-sammitida bildirgan taklifi asosida **Buxoro shahrida o'tkazilgan Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumida ham ikki va ko'p tomonlama hamkorlik kelishuvlariga erishildi.**

Mamlakatimizda yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berish hamda mamlakatning turizm salohiyatini xalqaro hamjamiyatda keng namoyish etish kabi bir qator rejalar asosida tashkil qilingan mazkur forum turkiy xalqlarni har tomonlama birlashishga, tajriba almashishga chorlashi bilan ahamiyatli bo'ldi.

O'zbekistonning 2021-2022-yillarda Shanxay hamkorlik tash-

►► **O'ZBEKISTONDA
YOSHLARGA OID
DAVLAT SIYOSATI**
davomi

SHHT YOSHLAR KENGASHINING
TOSHKENTDAGI YIG'ILISHI
DUNYO JAMOATCHILIGINING
E'TIBORINI TORTDI.

kiloti (ShHT)ga raisligi doirasida joriy yilning 9-10-iyun kunlari **Toshkent shahrida ShHT Yoshlar kengashining 15-yig'ilishi bo'lib o'tdi.** Yuqori darajadagi uchrashuvda ShHT Yoshlar kengashining a'zo davlatlardagi mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari boshchiligidagi delegatsiyalar, ShHT va Yoshlar kengashi Kotibiyat vakillari Tashkilotga a'zo davlatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida yoshlarning tutgan o'rnini oshirish masalalarini muhokama qilishdi.

Bugungi axborot asri hamda globalashuv jarayonida rivojlantirilayotgan mamlakatlar qatorida ShHT davlatlarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'sishi va taraqqiyotida yoshlarning o'rnini e'tiborga molik. Negaki, hozirgi vaqtda 3,2 milliarddan ortiq aholi istiqomat qiladigan SHHTning ulkan hududida yoshlarning salmog'i 55 foizdan ko'proq. Shu bois, SHHT Yoshlar kengashining Toshkentdagi yig'ilishi dunyo jamoatchiligining e'tiborini tortdi.

O'zbekiston tashabbusi bilan o'tkazilgan "Unicorns SCO: ShHT yoshlari o'rtasida eng yaxshi startap loyihalar tanlovi"ning final bosqichida startapchi yoshlarning 2 tadan, jami 50 ta eng yaxshi startap loyihalari ekspertlar guruhiga taqdim etildi. Bu jarayonda biz yana bir marta yoshlarimiz bilan faxrlandik. Sababi uch kun davom etgan tanlovda eng yaxshi 10 ta startapning har biriga 10 000 AQSh dollaridan, jami 100 000 dollar investitsiya mablag'lari ajratildi. Ana shu g'oliblardan 4 nafari bizning yoshlardir.

Yoshlar muammolarini hal qilish bo'yicha xalqaro formatlar bugun o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bunda Yangi O'zbekiston diplomatiyasining yoshlar siyosatini samarali olib borishdagi ilg'or tajriba va tashabbuslari – xalqaro hamjamiyat oldida mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.



Shu bois davlatimiz rahbari tashabbusi bilan **Astrum IT akademiyasida** qardosh davlatlar yoshlari o'rtasida ishonch va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlararo hamkorlikni kuchaytirish, kelgusidagi ijtimoiy loyiha hamda dasturlarni samarali amalga oshirish, mintaqadagi intellektual salohiyatga ega yoshlarni ezigulik yo'lida birlashtirish, mintaqa yoshlarining axborot texnologiyalari yo'nalishida tajriba almashishga ko'maklashish kabi maqsadlar negizida tashkil etilgan **"Markaziy Osiyo yoshlari forumi" bo'lib o'tdi.**

Mazkur forumdagi suhbatlar, fikr almashishlar jarayonida

XULOOSA

O'z navbatida mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda oldimizda quyidagi yana bir qator muhim vazifalar mavjud:

1

Birinchidan, yoshlarning huquqiy ongi va siyosiy xabarдорligini oshirish orqali yosh avlod kamoloti uchun davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanishda shaxsiy javobgarlik mas'uliyatini kuchaytirish, shaxsiy fazilati va dunyoqarashini boyitish orqali "boqimandalik" kayfiyatining oldini olish hamda ularda mehnatsevarlik, fidoyilik xislatlarini shakllantirish;

2

Ikkinchidan, yoshlarni vatanparvarlik, faol fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, ularda insonni ona tuprog'i bilan bog'lab turadigan qadriyatlarini kuchaytirish orqali qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga erishish;

Ta'kidlash joizki, bugungi zamonaviy tendensiyalar yosh avlodning hayotiy va axloqiy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur vaziyatda yoshlarni taraqqiyot ishtirokchisi qilish orqali ularda islohotlar mohiyatini tushunish, imkoniyatlarni qadrlash hissini shakllantirishimiz mumkin.

Prezidentimiz ham yoshlar bugungi islohotlarning kuzatuvchisi emas, talaba, yosh olim, davlat xizmatchisi, tadbirkor, sportchi sifatida ularning ishtirokchisi bo'lishlarini hamda yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etishini ta'minlashga e'tibor qaratmoqdalar. Zero, "Biz Yangi O'zbekistonda barpo etishda azm-u shijoatli yoshlarimizni xalqimizning chinakam tayanchi va suyanchi, deb bilamiz!".

3

Uchinchidan, yoshlarda zamonaviy kasblar va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, chekka hududlardagi yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, "inson kapitali"ni rivojlantirish orqali ularning arzon ishchi kuchi sifatida mehnat bozoriga kirib kelishining oldini olish, bugungi kun talabiga javob beradigan raqobatdosh kadrlar bo'lib yetishishini qo'llab-quvvatlash;

4

To'rtinchidan, davlat xizmatidagi yosh boshqaruv kadrlari hamda yoshlar yetakchilari orasidan yosh liderlarni saralash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, kasbiy rivojlanish monitoringini amalga oshirish hamda shaxsiy kompetensiyalari hisobga olgan holda rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi "Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti" faoliyatini qayta tashkil etish;

5

Beshinchidan, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlar huquqlari va manfaatlarini himoyasini kuchaytirish, yosh vatandoshlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda "O'zbekiston yoshlar kunlari"ni an'anaviy tarzda o'tkazish;

6

Oltinchidan, yoshlar masalalari bo'yicha xalqaro aloqalarni kuchaytirish, yoshlar vakillari ishtirokida xalqaro formatlarni qo'llab-quvvatlash, "Xalqaro yoshlar turizmi" siyosatini yo'lga qo'yish;

7

Yettinchidan, hozirgi globalashuv zamonida kuchli raqobat va yot mafkuralar o'rtasidagi kurash tobora keskinlashib borayotgan bir davrda yoshlarni yot illatlardan himoya qilish, ularni ma'rifat yo'li tomon safarbar etish. 15-16-sentabr kunlari SHHTning Samarqand sammitida Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Yoshlarning ekstremistik tashkilotlarga jalb etilishiga yo'l qo'ymaslik, turli nosog'lom mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq".

Yangilik

YOSHLAR ITTIFOQI KONFERENSIYASI

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Yangiariq tumani Kengashi konferensiyasi bo'lib o'tdi. 90 nafar delegat qatnashgan tadbirda tuman Kengashining faoliyati tahlil etilib, kelgusi rejalar bo'yicha fikr almashildi.

– Yangiariq tumanida o'tgan 5 yilda yoshlar bilan ishlash sohasini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishildi, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Xorazm viloyati Kengashi raisi Timur Jumaniyozov. – Kelgusida yoshlar bilan ishlash jarayonini izchil davom ettirgan holda Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishda yangiariqlik yoshlar ham kamarbasta bo'lishiga umid qilamiz. Tuman Kengashi va nazorat-taftish komissiyasi faoliyatini qoniqarli deb baholaymiz.

Konferensiya delegatlari tuman Kengashi va nazorat-taftish komissiyasi a'zolariga nomzodlar taklif etdi. Tuman Kengashi 21 kishilik, nazorat-taftish komissiyasi 7 kishilik tarkibda saylandi.



Shahnoza QALANDAROVA

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

IJARA PULI SHARTNOMASIZ TO'LAB BERILADI

Ijarada turadigan 1-kurs talabalariga 2 oylik ijara kompensatsiyasi hech qanday shartnomasiz to'lab beriladi. Noyabrdan boshlab esa faqat ijara shartnomasi bo'lsagina to'lanadi.

Vazirlar Mahkamasining bayoniga binoan, 1-kursda tahsil olayotgan, ijarada yashaydigan talabalarga, istisno tariqasida, sentabr va oktabr oyi ijara to'lovlarining 50 foizi, Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravarigacha (300 ming so'm), qolgan hududlarda esa BHMning 0,5 baravarigacha (150 ming so'm) hech qanday ijara shartnomasi talab etilmasdan to'lab beriladi.

Mazkur imkoniyatdan foydalanish uchun ijarada turadigan talabalar o'zi ta'lim olayotgan fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari yoki oliy ta'lim muassasasining talabalarni turar

joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limiga murojaat qilishlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan birinchi kursda tahsil olayotgan, ijarada yashayotgan talabalar ro'yxatini shakllantirish hamda kompensatsiya to'lovlari yuzasidan rektor (direktor) buyrug'i rasmiylashtirilib, tegishli mablag'lar to'lanishi belgilandi.

Eslatib o'tamiz, Hukumat qarori bilan 2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan, ota-onasiga (qonuniy vakillariga) tegishli bo'lmagan uyda ijarada yashaydigan talabalarga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi budget mablag'lari hisobidan qoplab berilishi belgilangandi. Bu tartib hozir ham o'z kuchida bo'lib, qaysidir talaba ijarada turgan bo'lsa, u nechanchi kursda o'qiyotganidan qat'i nazar, ijara kompensatsiyasi olishga haqqi bor.

“ISTIQLOL”NING IRODASI

Yoshlar yetakchisi o'ziga birkirilgan mahallaga mehr berishi, yosh-u qarini sevishi lozim. Qo'qon shahridagi "Istiqlol" mahallasi yoshlar yetakchisi Iroda Qayumova yetakchi yoshlarning dardini eshitishi, taklif va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Vazifasiga vijdonan yondashishga, yoshlar uchun ajratilayotgan imkoniyatlarni haqiqiy egasiga yetkazishga harakat qilayotgan qahramonimizning mahallasida shu kungacha qadar 6 nafar tadbirkor yosh subsidiya asosida ish qurollariga ega bo'lib, o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Yosh tadbirkorlardan biri Bekzod Yunusovdir. Unga yoshlar yetakchisi bergan tavsiyanoma asosida 12 million 800 ming so'mlik kosibchilik dastgohi olib berildi. Natijada Bekzod oyiga 6 million so'mgacha daromad topmoqda.



Iroda Qayumova,
Qo'qon shahridagi
"Istiqlol" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Subsidiya asosida yordam olib ish boshlagan yoshlarimizdan yana biri Feruzaxon Rustamova hozir mahallamizda go'zallik saloni ochib, 4 nafar ishsiz qizning bandligini ta'minladi. Otabek Tumanovga esa yarim shirinliklar tayyorlashga mo'ljallangan qandolatchilik sexi ochishi uchun 9 million 200 ming so'mlik pech berildi. Hozir mahallada joylashgan 2 ta maktab va kasb-hunar maktabi uchun shirinliklar tayyorlab, tarqatib kelmoqda. Nargiza Soliyevaga ham qandolatchilik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun pech va muzlatkich olib berildi. Hozir u Qo'qon shahridagi "Madina" savdo markaziga shirinliklar tayyorlab berib, oylik daromadini 5 million so'mga yetkazmoqda.

Asadullo TURSUNOV,
duradgor:

— Oilada yolg'iz boquvchi bo'lganim uchun doim pul topish harakatida yurardim. Mahallamizdagi usta hunarmand yonida duradgorlikni o'rganib, bir million atrofida daromad topardim. Yoshlar yetakchisidan yordam so'ragandim, ular meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, 12 million so'mlik dastgohni subsidiya asosida taqdim qildi. Shu kundan boshlab o'z uyimda mustaqil tarzda duradgorchilik bilan shugullanib kelyapman. Hozirgi kunda daromadim oyiga 4-5 million so'm atrofida bo'lyapti. Shu bilan birga, mahallamiz yoshlari uchun ikkita bo'sh ish o'rni yaratdim. Biz, asosan, Qo'qon shahridagi maktabgacha ta'lim muassasalari bilan shartnoma tuzib, bog'chalar uchun stolstul hamda karavotchalar yasab beryapmiz.



Bekzod YUNUSOV,
hunarmand:

— Bobolarimiz kosibchilik bilan shug'ullangani uchun men ham 12 yoshimdan shu hunarga qiziqqanman. Bobom va otamning ishlarini kuzatib, yordam berib, ish o'rgandim. O'zim ham mustaqil kosibchilik bilan shug'ullana boshladim. Bir kuni mahallamiz yoshlar yetakchisi bu hunarim orqasidan tadbirkorga aylanishim mumkinligini aytib qoldi. "Siz mahallada tadbirkorlikni yo'lga qo'ysangiz, mahalla yoshlarining bir nechtasi uchun ish o'rinlari paydo bo'lardi", dedi. Men bu taklifni qabul qildim. Meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, subsidiya asosida salkam 13 millionlik zamonaviy dastgohni olib berishdi. Men esa mahalladagi ikki nafar yoshni yonimga olib, tadbirkorlik faoliyatimni yo'lga qo'ydim. Hozir o'g'il bolalar poyabzalini yarim tayyor holga keltirib, poyabzal ishlab chiqaruvchi korxonalariga topshiryapman. Ilgarilari oyiga 2 million so'm atrofida daromad topgan bo'lsam, hozirgi kunda ikkita ishchimning oyligidan tashqari, 5 million so'm daromad olyapman. Endigi maqsadim olayotgan daromadimga yana zarur uskunalarni sotib olib, poyabzal ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Bu esa mahallamiz yoshlari uchun yana bir nechta yangi ish o'rni demakdir. Shu orqali menga ko'rsatilgan yordam uchun o'z javobimni berish niyatim bor.

Iroda Qayumovaning tavsiyasi va "Yoshlar daftari" taqdim qilayotgan imkoniyatlar sabab mahallada yana bir yosh duradgor o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yib, bo'sh ish o'rinlari yaratdi. Gap shundaki, Asadullo Tursunov bir necha yildan buyon mahalladagi usta-duradgorga shogird tushib, hunar o'rganib kelayotgandi. Ammo o'zi alohida shug'ullanish uchun dastgohga muhtojligi bor edi. Mablag'i yo'qligi bois yoshlar yetakchisidan yordam so'raydi. Iroda Qayumova tezda Asadulloni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, unga 12 million so'mlik dastgohni subsidiya asosida ajratib berdi.



“YOSHLAR DAFTARI”
TAQDIM QILAYOTGAN
IMKONIYATLAR SABAB
MAHALLADA YANA
BIR YOSH DURADGOR
O'Z TADBIRKORLIGINI
YO'LGA QO'YIB,
BO'SH ISH O'RINLARI
YARATDI.

Shu kunga qadar "Istiqlol" mahallasida istiqomat qilayotgan 6 nafar yoshga subsidiya asosida ish qurollari, 11 nafar yoshga bir martalik yordam puli, 9 nafar talaba-yoshlar kontrakt pulining bir qismi to'lab berilgan. Shuningdek, 3 nafar yoshga haydovchilik uchun, 2 nafariga kasb o'rganishi uchun o'qishga yo'llanma taqdim etilgan. Yana bir nafar yoshning davolanishi uchun ham mablag ajratishga tavsiya berilib, yordam berilgan.

Ishonamizki, Iroda Qayumova mahallada yangi tadbirkorlarni kashf etishda davom etadi.


ENG ZO'R 3 SAVOL

XIX asr o'rtalarigacha tish shifokori bo'lmagan, tishi og'rikaning bemorlar bilan "Tish sug'uruvchi" nomi ostida qassob yoki sarta-roshlar shug'ullangan. O'shanda og'riyotgan tishni faqatgina sug'urib tashlash mumkin edi. Fransuz vrachi va publitsisti Lyuk Perinoning mavzuga oid "Nolinchi bemor" asari 1844-yil AQShda azot oksididan foydalanib, tishlarni saqlab qolish, davolashning kashf etilgani, og'riqni bo'sundirishning qiziqarli tarixini hikoya qiladi.

Tishimiz og'rib qolgudek bo'lsa, dunyo ko'zimizga qorong'i ko'rinda boshlaydi, darrov stomatolog huzuriga shoshilamiz. So'rovnomalarga ko'ra, tibbiyotda eng ko'p murojaatlar tish shifokorlariga bo'larkan. Bugun mavzu bo'yicha **tajribali stomatolog Sherali Zayniddinova**ga yuzlandik.

1. Tajribali mutaxassis bilan no'noq stomatologni qanday ajratib olish mumkin?

– Stomatolog qabuliga borganida birinchi navbatda uning ish joyi, muolaja vaqtida foydalanadigan asbob-uskunalari va maxsus kiyimining tozaligi, tartibligiga e'tibor qaratilgan. Xonadagi ozodalik, saranjomlikning



o'zidanoq qanday tish shifokori qabulida ekaningizni bilib olasiz. Shuni aniq aytayotgan, tajribali mutaxassis bemordan muammoning kelib chiqishi haqida to'liq ma'lumot olganidan so'ng kutilayotgan natijani so'raydi, davolashning bir qancha usullarini taklif etadi. Qisqa qilib aytganda, mijozning fikri bilan ham qiziqadi.

2. Tish parvarishlash madaniyati yurtimizda qanday, 1 dan 10 gacha bo'lgan ko'rsatkichda baholasangiz. Yana tishlariga e'tibor bermaydigan yoshlarga nima deya olasiz?

– Tishga munosabatimizni 3 yoki 4 ball bilan baholagan bo'lardim, ya'ni juda past. Ijtimoiy tarmoqlar,

instagramdan faol foydalanuvchi yurtdoshlarimiz misolida aytadigan bo'lsak, ko'pchilik sekinlik bilan bo'lsa ham tashqi ko'rinishga, asosan, tishlariga e'tibor bera boshlayapti. Hali ham befarqlik bilan munosabatda bo'ladiganlarga shuni ta'kidlagan bo'lardimki, kasallangan tishni davolatishni qancha kechiktirsangiz, shuncha ko'p vaqt va mab-

lag' sarflaysiz. Tasavvur qiling, zararlangan tishni o'z vaqtida davolash va nobud bo'lgan tish o'miga implant tish o'matish, ikkining o'rtasida juda katta farq bor, eng zo'r implant ham o'z tishingizdek bo'la olmaydi. Ba'zilar tish og'rig'idan qattiq aziyat chekanida, ya'ni og'riq qoldiruvchi dorilari ta'sir qilmay, chorasiz vaziyatda qolganidagina yoki ko'p hollarda turmush qurish arafasida stomatologga murojaat qiladi. Bu bir umr xizmat qilishi kerak bo'lgan a'zoyimizga nisbatan juda salbiy munosabat.

3. Qabuligizga kelayotgan bolalar, o'smirlar – yoshlarda, asosan, qanday muammolar bor, ularning oldini olish uchun nimalar qilish kerak?

- TISH SHIFOKORINI TANLASH
- TISH PARVARISHLASH MADANIYATI
- MUAMMONING OLDINI OLISH

Ziyoda RAHIMBOYEVA suhbatlashdi.

– Bugun yoshlarda karies bilan kasallanish darajasi juda yuqori. O'zim kuzatgan holatlarda ko'pincha bunga ota-onaning farzandiga tish parvarishlash haqida yetarlicha tushuncha bermagani sabab bo'ladi. Aslida tishlarni har kuni ikki marotaba tozalash refleksga aylanishi kerak. Bemorlarning ko'pchiligi tishlarining qattiq zararlanishiga shirinlikni yaxshi ko'rishi va ko'p yeyishini sabab qilib ko'rsatadi. Ayniqsa, yosh bolalar va o'spirinlarda bu ko'rsatkich yuqori. Bu bekorga emas, chunki o'sayotgan organizm uchun uglevod juda zarur, uglevodning yuqori miqdorini biz shokoladdan topishimiz mumkin. Shu sabab tishlarning zararlanishidan qo'rqib, shokoladni taqiqlash katta xato! Aksincha, me'yorni unutmagan holda ovqatlanish ratsioniga shokoladni ham kiritishimiz kerak. Biroq sanoatning rivojlanishi ortidan shirinlik biznesida kimyoviy qo'shimchalar bilan "boyitilgan" "Chupa-chups" yoki "Iris" kabi shirinliklar ko'paymoqda. Bulardan imkon qadar tiyilish zarur. Bola uchun qaydali uglevod manbasi bo'lgan haqiqiy shokolad bilan zararli shirinliklarni farqlashni maslahat berar edik.

177 IMKONIYAT

TALABALAR UCHUN SOLIQ IMTIYOZLARI



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi 16-bandiga binoan, ta'lim kontrakti to'lovini ish haqi yoki boshqa daromadlardan amalga oshirgan shaxs soliq imtiyozlari olish bo'ladi. Imtiyozlarning mazmuni shundaki, fuqarolarning OTMlarda ta'lim olish uchun ajratilgan daromadlari soliqqa tortilmaydi.

Imtiyozdan foydalanishi mumkin:

- 26 yoshga to'lmagan farzandlari shartnoma asosida o'qiydigan ota-onalar;
- 26 yoshga to'lmagan turmush o'rtoqlari shartnoma asosida o'qiydigan shaxslar;
- yoshidan qat'i nazar, daromad oluvchi (rasman ishlayotgan) talabalar.

Ushbu imtiyoz yaqin qarindoshlar, ya'ni aka-uka va opa-singillar, xola, amaki va boshqalarning shartnomalarini to'lashga qo'llanilmaydi.

Soliq imtiyozlari quyidagi manbalar hisobidan o'qish uchun

to'lov amalga oshirilganda taqdim etiladi:

- o'z mablag'lari;
- jismoniy shaxsga tijorat banklari tomonidan berilgan ta'lim kreditlari;
- yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga qaytarish sharti bilan berilgan mablag'lar (ssudalar).

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Imtiyoz fuqaroning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasini soliq organlariga topshirgan holda yoki soliq to'lovchining to'lov manbayiga (misol, ish joyi) yozma arizasi asosida olinishi mumkin.

Agar soliq imtiyozlari ish joyidan qo'llanilsa, fuqaro quyidagilarni tashkilot buxgalteriyasiga taqdim etadi:

- talaba bilan oliy o'quv yurti o'rtasida to'lov-kontrakt asosida o'qitish to'g'risida tuzilgan shartnoma nuxsasi;

• tijorat banki bilan ta'lim kreditini olish uchun tuzilgan shartnoma nuxsasi (agar ta'lim krediti olgan bo'lsa);

• ta'lim oluvchining pasporti yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi nuxsasi.

Bu holda tashkilot buxgalteriyasi kontrakt to'lash uchun ajratilgan mablag'ni maoshdan ushlab qolib, OTM hisobiga tushiradi. Bunda daromadlarning 50 foizidan ko'prog'ini ushlab qolish man etiladi.

Agar imtiyoz shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasi asosida qo'llanilsa, quyidagilarni turar joyidagi soliq organlariga taqdim etadi:

- talaba (talabalar) bilan oliy o'quv yurti o'rtasida to'lov-kontrakt asosida o'qitish to'g'risida tuzilgan shartnoma (shartnomalar) nuxsasi;
- tijorat banki bilan ta'lim kreditini olish uchun tuzilgan shartnoma (shartnomalar) nuxsasi (agar ta'lim krediti olgan bo'lsa);

• oliy o'quv yurtlari hisob raqamiga (ta'lim kreditini qoplaganda tijorat banki hisob raqamiga) pul mablag'larini mustaqil to'laganligini tasdiqlovchi hujjatlar nuxsasi;

• pasport nuxsasi (soliq imtiyozlari ta'lim oluvchining o'zi tomonidan qo'llanilganda);

• pasport nuxsasi (soliq imtiyozlari ota-ona tomonidan qo'llanilganda) va ta'lim oluvchining (ta'lim oluvchilarning) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi nuxsasi;

• pasport nuxsasi (soliq imtiyozlari turmush o'rtoqi tomonidan qo'llanilganda) va ta'lim oluvchining (ta'lim oluvchilarning) nikoh to'g'risidagi guvohnoma nuxsasi.

Jami yillik daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani elektron shaklda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetida, ro'yxatdan o'tgan pochta orqali yoki soliq idorasiga shaxsan tashrif buyurib topshirish mumkin. Soliq chegirmasini olish bo'yicha ariza bir oy ichida ko'rib chiqiladi.

“MODA”



Loyiha muallifi: Ziyoda RAHIMBOYEVA

Nafaqat yoshlar, dunyoning eng boy va mashhur kishilari ham modaga doimo e'tibor qarati-shadi, hatto o'zlari yaratishlari ham hech gap emas. Ammo har qanday holatda ham bir kishi yoki jamiyatning ma'lum qatlami o'ylab topgan narsani urf bilib, ko'r-ko'rona ergashib ketaverish biroz g'alati, shu bilan birga, juda qiziq jarayon! Bugun bu mavzu yuzasidan qiziqarli ma'lumotlar bilan birga, mulohazaga undovchi fikrlarni ham muhokama qilamiz.

MODA BU...

Kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlar, bo'yanish hamda (bugungi yoshlarbop tilda ayt-sak "Make-up") soch turmagi kabi turmushimizda uchraydigan, muayyan did yoki qiziqishning ma'lum vaqt qaror topgan estetik ifodani moda deb ataymiz.

KIYIMLARNING QIZIQARLI TARIXI

Bugun biz oddiy kiyim sifatida foydalanadigan liboslar aslida juda qiziqarli o'tmishga ega. Bunga eng katta sabab sifatida aynan moda tushunchasini keltirishimiz mumkin. Hech kimga sir emas, mavsum, bayram yoki shunchaki burjlar almashishiga qarab o'zgarib boraveradigan urflar havaskorlardan yaxshigina diqqat-e'tibor hamda xarajat talab etadi.

Masalan, bugun ayollarga yanada latofat bag'ishlaydigan **baland poshnali tuffilar XIV asrda Yevropa zodagonlari orasida o'zgacha urf yaratilishiga sabab bo'lgan.** Unga ko'ra, poshnaning balandligiga qarab, amaldorning mansabi yoki qanchalik oliy nasab tabaqadan ekanini aniqlash mumkin edi.

Moda tarixida ayollar ham, erkaklar ham kiygan, bir so'z bilan aytganda **eng qadimiy libos bu yubkadir.** "Yoshi ulug" aksessuar sifatida esa sirg'alarni misol qilish mumkin. Bugun zirakning qimmatbaho toshlardan ishlov berib yasalgan minglab turini topish mumkin. Bir necha yuz yillar avval esa erkaklar jamiyatidagi alohida mavqeyi-



ning belgisi sifatida taqishgan. Shu bilan birga, **har bir millatda zirak taqish o'zgacha ma'noni anglatgan:** qadimgi ossuriyaliklar orasida faqat zodagonlar sirg'a taqishlari mumkin edi, qadimgi Rimda esa, aksincha, qullar bunga mahkum etilgan. Rossiyada ular tumor hisoblanib, lo'ilalar va kazaklar shu tariqa hammaga oilaning yagona o'g'illari va davomchilari ekanini ko'rsatishgan.

Ayollar va erkaklar kiyimida **eng ko'p foydalaniladigan aksessuarlardan biri tugmadir.** Yuqorida mashhur insonlar ham o'ziga xos urf yaratishi mumkinligi haqida suhbatlashdik, buni hatto ularning o'zlari ham bilmasligi mumkin. Masalan, bugun kiyim yengiga o'rnatiladigan bezakbop tugmalar bir necha asr avval, fransuz qo'mondoni va siyosiy yetakchi Napoleon Bonapart tomonidan ixtiro qilingan, mashhur qo'mon-don lashkaridagi askar yigitlar kiyimiga tugma qo'ydirish haqida buyruq berishdan asosiy maqsad yangicha urf yaratish emas, kiyim yengini shamollagan askar uchun dastro'molcha-ga aylanib ketishining oldini olish edi!

MODA VA YOSHLAR

Har yili dunyoda 50 ga yaqin yirik moda haftaliklari o'tkaziladi. Milan, Nyu-York, Germa-niya, Angliya, Fransiya kabi shaharlardagi ma-rasim va tadbirlarga dunyoning turli chekkasi-dan moda ixlosmandlari yig'iladi.

Ha, bugun modani sevuvchilar juda ko'p. Ularning katta qismini, asosan, yoshlar tash-kil etishi ham ajablanarli emas. Kimlarning-dir sevimli xobbisi, yana kimningdir hayotiga aylangan bu olam yana kim uchundir juda kat-ta daromad manbasi hisoblanadi.

Ko'pchiligimizda so'nggi urfdagi, reklama-sida mashhur aktyor ishtirok etgan kiyim bilan do'stlarini hayron qoldirish istagi kuchli. Hatto psixologiyada shunday istak ortidan turli ruhiy muammolarga duch keladigan bemorlar ham bo'lib, "Shopogolik" deb ataladi.



ADASHTIRIB QO'YMANG

Odatda moda deganda yuksak didli dizaynerlar yaratadigan, san'at asari darajasi-dagi liboslar, bejirim kiyimlar ko'z oldimizga ke-ladi. Shu bilan birga, qisman kiyinish madaniya-ti, ayniqsa, kiyimlarni o'z vaqti va o'rniga qarab tanlash ham modaning bir bo'lagi hisoblanadi. Biroq so'nggi vaqtga kelib, bu tushuncha o'z mo-hiyatini yo'qotib bormoqda, saviyasiz qo'shiqlari bilan tanilgan shou-biznes vakili kiygani uchun "trend"ga chiqqan krossovka, bemaza va mani-siz seriiallarda rol ijro etuvchi aktrisa qizning soch turmagi yoki shunchaki chet elniki bo'lgan har qanday buyum yoshlarning diqqat-e'tibori-ni egallab olayotgandek.

Maqolada sizga moda haqidagi yangi bilim-lar va qiziqarli ma'lumotlarni yetkaza oldik de-gan umiddamiz, loyihaning keyingi sonida ni-malar haqida o'qishni istaysiz? Telegramdagi **@YO_tahririyati_bot** manzili taklif va mulohazalarinizi yo'lashingiz uchun doimo ochiq.



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100085, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-70-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xanasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 3 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1055, Adali - 10526. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

